MotoLyrics

[MotoLyrics.com](MotoLyrics.com)
Biggest, regularly updated and free lyrics database

# Yulduz Usmanova
# "Ayol oshiq bo'lsa gar"

Visit "Ayol oshiq bo'lsa gar" on MotoLyrics.com

Erkak oshiq bo'lsa gar,
Guldan bo'sa oladi.
Ayol oshiq bo'lsa gar,
Yonar, o'tda qoladi.

Erkak oshiq bo'lsa gar,
Arslon tonar izidan.
Ayol oshiq bo'lsa gar,
Yomg'ir yog'ar ko'zidan.

Mayli, mayli, shukr, Ollohim.
Meni ayol etib yaratding.
Nima, nima edi gunohlar -
Ishq yo'liga meni qaratding.
Mayli, mayli, shukr, Ollohim.
Bizni ayol etib yaratding.
Nima, nima edi gunohlar -
Ishq yo'liga bizni qaratding.

Erkak oshiq bo'lsa gar,
Hayf sanalmas gunohi.
Ayol oshiq bo'lsa gar,
Topilmagay panohi.

Erkak oshiq bo'lsa gar,
Unga qadah tutarlar.
Ayol oshiq bo'lsa gar,
Begap tavba kutarlar.

Mayli, mayli, shukr, Ollohim.
Meni ayol etib yaratding.
Nima, nima edi gunohlar -
Ishq yo'liga meni qaratding.
Mayli, mayli, shukr, Ollohim.
Bizni ayol etib yaratding.
Nima, nima edi gunohlar -

Ishq yo'liga bizni qaratding. (3x)

Visit Yulduz Usmanova page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.